

*Fanlar akademiyasining jamg'arma
faoliyatini boshqarish va uning
mablag'larini taqsimlash bo'yicha
kengashining 2026-yil 11-sentyabrdagi
5-son yig'ilish bayonnomasiga
ilova*

**Tayanch doktorantura izlanuvchilariga nomli stipendiyalarni
tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida
NIZOM**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom Fanlar akademiyasi tomonidan tayanch doktorantura izlanuvchilariga ta'sis etilgan nomli stipendiyalar (keyingi o'rinlarda – nomli stipendiyalar) ni tayinlash va to'lash tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

talabgor – nomli stipendiya tanlovida ishtirok etuvchi Fanlar akademiyasi tizimidagi tashkilotda tahsil olayotgan tayanch doktorantura izlanuvchisi;

tashkilot – talabgor tahsil olayotgan Fanlar akademiyasi tizimidagi yuridik shaxs;

stipendiat – tanlov natijasiga ko'ra nomli stipendiya tayinlangan tayanch doktorantura izlanuvchisi;

ilmiy kadrlar bo'limi – Fanlar akademiyasining arizalarni qabul qilish va dastlabki ko'rib chiqish uchun mas'ul tarkibiy bo'linmasi;

saralash komissiyasi – talabgorlarni baholash va saralash uchun Fanlar akademiyasida tuziladigan kollegial organ;

maxsus axborot tizimi – nomli stipendiya tanlovi bo'yicha arizalarni qabul qilish, ko'rib chiqish, baholash va ularning hisobini yuritishga mo'ljallangan dasturiy ta'minot;

3. Nomli stipendiyalar Fanlar akademiyasi Prezidiumining qaroriga muvofiq Fanlar akademiyasi prezidentining buyrug'iga asosan fizika-matematika va texnika, kimyo-biologiya, ijtimoiy-gumanitar fanlari (keyingi o'rinlarda – fan yo'nalishlari) bo'yicha ta'sis etiladi.

4. Nomli stipendiya Fanlar akademiyasi jamg'armasi (keyingi o'rinlarda – Jamg'arma) mablag'lari hisobidan har bir stipendiatga har oy mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining besh baravari miqdorida to'lanadi.

5. Tegishli fan yo'nalishi bo'yicha nomli stipendiya tayanch doktoranturaning ikkinchi va uchinchi ta'lim bosqichiga o'tayotgan **besh nafar** izlanuvchiga tayinlanadi va to'lanadi.

6. Saralash komissiyasi tarkibi har ikki yilda bir marotaba 1-avgust sanasiga qadar Fanlar akademiyasi va tegishli fan yo‘nalishlari bo‘yicha malakali mutaxassislardan iborat tarkibda Fanlar akademiyasi prezidentining buyrug‘i bilan tasdiqlanadi.

7. Stipendiatlar ro‘yxati saralash komissiyasi tomonidan tasdiqlanadi va Fanlar akademiyasi prezidentining buyrug‘iga asosan ularga 12 oy muddatga nomli stipendiya tayinlanadi.

Stipendiatlar ro‘yxati maxsus axborot tizimida va Fanlar akademiyasining rasmiy veb-saytida e‘lon qilinadi.

8. Nomli stipendiyalarni tanlov asosida tayinlash va to‘lash mazkur Nizomga **1-ilovadagi** sxemaga muvofiq amalga oshiriladi.

2-bob. Arizalarni qabul qilish, ko‘rib chiqish va g‘oliblar ro‘yxatini tasdiqlash

9. Fanlar akademiyasi **har yili 1-sentabr sanasiga qadar** nomli stipendiyalar tanloviga arizalarni qabul qilish bo‘yicha Fanlar akademiyasining rasmiy veb-sayti, maxsus axborot tizimi va ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarida e‘lon joylashtiradi.

Tanlov to‘g‘risidagi e‘lon matni loyihasi Fanlar akademiyasi Jamg‘arma faoliyatini tashkil etish bo‘limi (keyingi o‘rinlarda – Ishchi organ) tomonidan Fanlar akademiyasi Ilmiy kadrlar bo‘limi (keyingi o‘rinlarda – Ilmiy kadrlar bo‘limi) bilan kelishilgan holda tayyorlanadi.

10. Arizalar maxsus axborot tizimi orqali **har yili 15-oktabr sanasiga qadar** qabul qilinadi.

Maxsus axborot tizimidan obyektiv sababga ko‘ra foydalanish imkoni bo‘lmaganda, ariza va unga ilova qilinadigan hujjatlar talabgor tahsil olayotgan tashkilotning rasmiy xati bilan Fanlar akademiyasiga yuboriladi.

Agar ushbu sana dam olish yoki bayram kuniga to‘g‘ri kelsa, ariza taqdim etish muddatining oxirgi kuni undan keyingi birinchi ish kuni hisoblanadi.

Arizaning qabul qilingan vaqti uning maxsus axborot tizimida yoki Fanlar akademiyasining elektron hujjat aylanishi tizimida ro‘yxatga olingan vaqti bilan aniqlanadi.

11. Nomli stipendiya tanlovida tayanch doktoranturaning birinchi va ikkinchi bosqichlarida tahsil olayotgan hamda tegishli bosqichni tanlov o‘tkazilayotgan yilda yakunlaydigan izlanuvchilar ishtirok etadi.

Birinchi bosqich yakunlari bo‘yicha o‘tkazilgan tanlovda g‘olib bo‘lib, ikkinchi bosqichda nomli stipendiya tayinlangan stipendiat navbatdagi yilda ikkinchi bosqich yakunlari bo‘yicha o‘tkaziladigan tanlovda talabgor sifatida ishtirok etishga haqli.

Talabgor mazkur tanlovda g'olib bo'lgan taqdirda, unga nomli stipendiya uchinchi bosqichda tayinlanadi.

12. Tayanch doktoranturadan chetlashtirilgan yoki ta'lim olish jarayoni qonunchilikka muvofiq vaqtincha to'xtatilgan shaxs tanlovda ishtirok etmaydi.

13. Talabgor arizasiga quyidagi hujjatlar ilova qiladi:

tayanch doktoranturaga qabul qilinganligi, ixtisosligi, dissertatsiya mavzusi va ilmiy rahbari to'g'risidagi ma'lumotlar;

dissertatsiya mavzusi, tadqiqotning dolzarbligi, ilmiy yangiligi, ilmiy ahamiyati, asosiy natijalari va bajarilish holati to'g'risida qisqacha ma'lumot;

dissertatsiya mavzusi bo'yicha e'lon qilingan ilmiy ishlar va boshqa ilmiy natijalar ro'yxati va ularning nusxalari;

intellektual mulk obyektlari, ilmiy ishlanmalar, joriy etish natijalari, ilmiy loyihalar va grantlar, mukofotlar hamda boshqa ilmiy yutuqlar ro'yxati va ularni tasdiqlovchi hujjatlar;

talabgorning ilmiy faoliyati, shaxsiy hissasi va dissertatsiya ishining bajarilish holati to'g'risidagi ilmiy rahbar xulosasi.

14. Arizani qabul qilish muddati tugaganidan keyin erishilgan yangi ilmiy natijalar arizani ko'rib chiqish jarayonida hisobga olinmaydi.

15. Ariza dastlab talabgor tahsil olayotgan tashkilotning ilmiy kengashida quyidagilar yuzasidan ko'rib chiqiladi:

ariza va unga ilova qilingan hujjatlarning to'liqligi;

talabgorning tayanch doktorantura izlanuvchisi maqomi;

dissertatsiya mavzusining tegishli fan yo'nalishiga muvofiqligi;

yakka tartibdagi rejaning bajarilish holati.

Ilmiy kengash qaroridan ko'chirma ilmiy kengash qarori bilan tasdiqlangan yakka tartibdagi rejaning bajarilishi to'g'risida ma'lumot bilan rasmiylashtiriladi.

16. Talabgorning ilmiy rahbari, yaqin qarindoshi yoki talabgor bo'yicha boshqa manfaatlar to'qnashuviga ega ilmiy kengash a'zosi mazkur talabgorga oid muhokama va ovoz berishda ishtirok etmaydi.

Ushbu holat ilmiy kengash bayonnomasida qayd etiladi.

17. Ilmiy kengash kotibi talabgorni nomli stipendiya tanlovida ishtirok etish uchun tavsiya etilganligi to'g'risidagi ilmiy kengashning qaroridan ko'chirmani maxsus axborot tizimiga yuklaydi va talabgor tomonidan kiritilgan arizani kelishib beradi.

18. Ariza va unga ilova qilingan ma'lumot va hujjatlar talabgor tomonidan maxsus axborot tizimi orqali tashkilot rahbariga yuboriladi.

Tashkilot rahbari bilan kelishilgan ariza va unga ilova qilingan ma'lumot va hujjatlar maxsus axborot tizimi orqali Ilmiy kadrlar bo'limi tomonidan qabul qilinadi.

19. Ilmiy kadrlar bo'limi ariza va unga ilova qilingan hujjatlarni o'n kunlik muddatda belgilangan talablarga muvofiq rasmiylashtirilganligi, ariza va unga ilova qilingan hujjatlarning to'liqligini ko'rib chiqadi.

Ilmiy kadrlar bo'limi tomonidan ariza va unga ilova qilingan hujjatlarda belgilangan muddatda berilmaganligi, hujjatlari to'liq yoki mazkur Nizom talablariga muvofiq bo'lmaganligi aniqlangan taqdirda ularni maxsus axborot tizimida qayd etilgan holda qaytaradi.

20. Ilmiy kadrlar bo'limi tomonidan ko'rib chiqilgan ariza va unga ilova qilingan hujjatlar **har yili 25-oktabr sanasiga qadar** saralash komissiyasiga muhokama qilish va qaror qabul qilish uchun kiritiladi.

21. Talabgorning ilmiy rahbari, yaqin qarindoshi, talabgor tahsil olayotgan tashkilot rahbari yoki mazkur talabgor bo'yicha boshqa manfaatlar to'qnashuviga ega saralash komissiyasi a'zosi talabgorni baholashda va u bo'yicha qaror qabul qilishda ishtirok etmaydi.

22. Saralash komissiyasi faoliyatini uni ovoz berish huquqiga ega bo'lmagan komissiya a'zosi, kotib tashkil etadi.

23. Saralash komissiyasi talabgorlarni mazkur Nizomga **2-ildavda** belgilangan 100 ballik baholash mezonlari asosida **har yili 10-dekabr sanasiga qadar** baholaydi.

Saralash komissiyasi qaroriga muvofiq talabgor Fanlar akademiyasiga ariza va unga ilova qilingan hujjatlar bo'yicha taqdimot himoyasini o'tkazish uchun taklif etilishi mumkin.

Bunda talabgorni taqdimot himoyasida belgilangan muddatda ishtirok etishini ta'minlash tashkilot tomonidan amalga oshiriladi.

Belgilangan muddatda yetib kelmagan va taqdimot himoyasini o'tkazmagan talabgor saralash komissiyasining qaroriga asosan tanlovdan chetlatiladi.

24. Har bir baholovchi talabgor bo'yicha mazkur Nizomga **3-ildavdagi** baholash varag'ini maxsus axborot tizimida mustaqil ravishda to'ldiradi.

Har bir mezon bo'yicha qo'yilgan ball qisqacha asoslantiriladi.

25. Baholashda arizalarni qabul qilishning oxirgi sanasiga qadar erishilgan va hujjatlar yoki ishonchli elektron manbalar bilan tasdiqlangan ilmiy natijalar hisobga olinadi.

Bir ilmiy natijani ikki yoki undan ortiq mezon bo'yicha takroran hisobga olishga yo'l qo'yilmaydi.

26. Hammualliflikdagi ilmiy ish yoki boshqa ilmiy natija baholanganda talabgorning shaxsiy hissasi alohida inobatga olinadi.

Fan yo'nalishining o'ziga xos xususiyatiga ko'ra muayyan natija turining mavjud emasligi boshqa mezonlar bo'yicha ballni kamaytirish uchun asos bo'lmaydi.

27. Talabgorning yakuniy bali uni baholagan saralash komissiyasi a'zolari qo'ygan umumiy ballar yig'indisini baholovchilar soniga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi.

70 balldan kam natija olgan talabgor nomli stipendiya tayinlash uchun tavsiya etilmaydi.

28. Har bir nomli stipendiya bo'yicha ro'yxat talabgorlarning yakuniy ballari kamayib borish tartibida shakllantiriladi.

70 va undan yuqori ball to'plagan talabgorlardan eng yuqori o'rinlarni egallaganlari nomli stipendiya tayinlash uchun g'olib sifatida tavsiya etiladi.

29. Ikki yoki undan ortiq talabgorning yakuniy ballari teng bo'lgan taqdirda, e'lon qilingan ilmiy ishlar va boshqa tasdiqlangan ilmiy natijalar mezoni bo'yicha yuqori ball olgan talabgorga ustunlik beriladi.

Ushbu ko'rsatkich ham teng bo'lsa, dissertatsiya tadqiqotining dolzarbligi, ilmiy yangiligi va ilmiy ahamiyati bo'yicha yuqori ball olgan talabgorga ustunlik beriladi.

30. Saralash natijalari komissiya majlisi bayonnomasi bilan rasmiylashtiriladi.

Bayonnoma bilan har bir nomli stipendiya kesimida **g'oliblar ro'yxati** tasdiqlanadi, bayonnoma va tasdiqlangan g'oliblar ro'yxati besh kunlik muddatda Ishchi organga tegishli buyruq loyihasini tayyorlash uchun yuboriladi.

G'oliblar ro'yxatida quyidagilar ko'rsatiladi:

talabgorning familiyasi, ismi va otasining ismi;

tahsil olayotgan tashkilot nomi;

tayanch doktorantura ixtisosligi shifri va nomi;

joriy tahsil bosqichi;

tanlov natijasi bo'yicha to'plagan yakuniy bali;

3-bob. Nomli stipendiyani tayinlash, moliyalashtirish va to'lash

31. Ishchi organ saralash komissiyasining stipendiatlar ro'yxati tasdiqlangan bayonnomasini olgan kundan boshlab besh kun muddatda Fanlar akademiyasi prezidentining buyruq loyihasini belgilangan tartibda imzolashga kiritadi.

32. Stipendiatlarga stipendiyalar tanlov o'tkazilgan yilning keyingi yilidan boshlab to'lanadi. Bunda talabgorning ta'lim bosqichiga ko'ra stipendiya quyidagi tartibda tayinlanadi:

birinchi bosqich yakuni bo'yicha ikkinchi bosqichida ta'limni davom ettirishda;

ikkinchi bosqich yakuni bo'yicha uchinchi bosqichi ta'limni davom ettirishda.

Tanlov g'olibi ta'limni davom ettirmagan taqdirda, unga nomli stipendiya tayinlanmaydi.

33. Bir shaxsga Jamg'arma mablag'lari hisobidan faqat bitta nomli stipendiya tayinlanadi.

34. Nomli stipendiyalarni moliyalashtirish Jamg'armaning tegishli yil uchun tasdiqlangan daromad va xarajatlari parametrlari hamda xarajatlar smetasida ushbu maqsadlar uchun nazarda tutilgan mablag'lar doirasida amalga oshiriladi.

35. Ishchi organ hamda Fanlar akademiyasining moliya va buxgalteriya hisobi uchun mas'ul bo'linmalari o'z vakolatlari doirasida tashkilotning tegishli daromadlar va xarajatlar smetasiga zarur o'zgartirishlar kiritadi va g'aznachilik ijrosini ta'minlash hamda moliyalashtirishni rasmiylashtirish uchun qonunchilikda talab etiladigan hujjatlarni tayyorlaydi.

36. Tashkilot uchun alohida shaxsiy g'azna hisobvarag'ini ochish zarurati mavjud bo'lganda, bunday hisobvaraqlar budjet va g'aznachilik to'g'risidagi qonunchilikda belgilangan tartibda vakolatli iqtisodiyot va moliya organi hamda G'aznachilik xizmati qo'mitasi tizimi orqali ochish uchun Fanlar akademiyasining moliyaviy masalalarga mas'ul bo'linma tomonidan zarur hujjatlar tayyorlanadi.

37. Nomli stipendiyalarni to'lash uchun ajratilgan mablag'lar Fanlar akademiyasining buxgalteriya hisobi uchun mas'ul bo'linmasi tomonidan stipendiat tahsil olayotgan tashkilotning Jamg'arma mablag'lari hisobidan ushbu maqsadlar uchun foydalaniladigan tegishli budjetdan tashqari shaxsiy g'azna hisobvarag'iga o'tkaziladi.

38. Nomli stipendiya tayanch doktorantura izlanuvchisiga qonunchilikka muvofiq to'lanadigan asosiy stipendiyadan tashqari qo'shimcha ravishda tashkilot tomonidan to'lanadi.

39. Tashkilot nomli stipendiyani stipendiatga har oy belgilangan miqdorda, asosiy stipendiya to'lovlari amalga oshiriladigan tartibda stipendiatga o'tkazib boradi.

40. Mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori o'zgargan taqdirda, nomli stipendiya miqdori uning yangi miqdori amalga kiritilgan sanadan boshlab qayta hisoblanadi.

41. Tashkilotga nomli stipendiyalarni to'lash uchun o'tkazilgan mablag'lardan boshqa maqsadlarda foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

To'lov muddati yakunlanishi yoki to'lov to'xtatilishi yoxud tugatilishi natijasida foydalanilmay qolgan mablag'lar o'n ish kuni ichida Jamg'arma mablag'lari jamlanadigan budjetdan tashqari shaxsiy g'azna hisobvarag'iga qaytariladi.

4-bob. Nomli stipendiya to'lovini to'xtatib turish, tugatish va stipendiyadan mahrum qilish tartibi

42. Stipendiatning ta'lim olish jarayoni qonunchilikka muvofiq vaqtincha to'xtatilganda, nomli stipendiya to'lovi tegishli qaror amalga kirgan sanadan to'xtatib turiladi.

Tashkilot bu haqda uch kunlik muddatda Ilmiy kadrlar bo'limi va Ishchi organga xabar beradi.

43. Stipendiatning ta'lim olish jarayoni tiklanganda nomli stipendiya to'lovi stipendiya tayinlangan o'n ikki oylik muddatning qolgan qismi uchun tiklanadi.

Ta'lim olishning vaqtincha to'xtatilishi stipendiya tayinlangan umumiy muddatni uzaytirmaydi.

44. Nomli stipendiya to'lovi quyidagi hollarda tugatiladi:
stipendiya tayinlangan o'n ikki oylik muddat tugaganda;
stipendiat tayanch doktoranturadan chetlashtirilganda;
stipendiat tayanch doktoranturada tahsil olishni muddatidan oldin yakunlaganda;
stipendiat Fanlar akademiyasi tizimiga kirmaydigan boshqa tashkilotga o'tkazilganda;
stipendiat nomli stipendiyadan yozma ravishda voz kechganda;
stipendiat vafot etganda.

45. Oraliq monitoring natijasida stipendiatning yakka tartibdagi rejasida nazarda tutilgan ishlar uzrsiz sabablarga ko'ra muntazam bajarilmaganligi aniqlanganda, tashkilotning ilmiy kengashi stipendiya to'lovini muddatidan oldin tugatish to'g'risida asoslangan taklif kiritishi mumkin.

Bunda stipendiatga yozma tushuntirish berish uchun besh kunlik muddat beriladi.

46. Stipendiat quyidagi hollarda nomli stipendiyadan mahrum qilinishi mumkin:
tanlov uchun taqdim etilgan hujjatlarda yolg'on yoki haqiqatga to'g'ri kelmaydigan ma'lumotlar mavjudligi aniqlanganda;

stipendiya tayinlashda hisobga olingan ilmiy natijaga doir plagiat, mualliflikni soxtalashtirish yoki ilmiy odob-axloq qoidalarini boshqa tarzda buzish holati belgilangan tartibda tasdiqlanganda.

47. Nomli stipendiya to'lovini muddatidan oldin tugatish yoki stipendiatni nomli stipendiyadan mahrum qilish Fanlar akademiyasi prezidentining buyrug'i bilan amalga oshiriladi.

48. Nomli stipendiya to'lovi to'xtatib turilganda, tugatilganda yoki stipendiat stipendiyadan mahrum qilinganda, tashkilot to'lovlarni tegishli sanadan boshlab

to'xtatadi va foydalanilmay qolgan mablag'larni belgilangan tartibda Jamg'armaga qaytarishni ta'minlaydi.

5-bob. Yakunlovchi qoidalar

49. Fanlar akademiyasi Ichki audit xizmati bo'linmasi stipendiatlarga to'lash uchun Jamg'arma mablag'laridan o'tkazilgan mablag'larning maqsadli sarflanishi ustidan qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibga muvofiq monitoringni o'tkazadi.

Monitoring hujjatlarini o'rganish, qo'shimcha ma'lumotlar talab qilish, joyiga chiqqan holda o'rganish va boshqa nazorat shakllari orqali amalga oshiriladi.

50. Saralash komissiyasi ko'rib chiqish uchun kiritilgan ariza yuzasidan qo'shimcha ma'lumot va hujjatlarni so'rab olishga haqlidir.

51. Quyidagilar o'z vakolatlari doirasida javobgar hisoblanadi:

talabgor – arizaga kiritilgan ma'lumotlar va unga ilova qilingan hujjatlarning haqqoniyligi uchun;

tashkilot – o'zi tasdiqlagan ma'lumotlarning to'g'riligi hamda nomli stipendiya to'lovlarining belgilangan muddatlarda va maqsadli amalga oshirilishini ta'minlash uchun;

saralash komissiyasi a'zolari – talabgorlarni baholashning xolisligi, qo'yilgan ballarning asoslanganligi va baholash mezonlariga muvofiqligi uchun.

52. Talabgor va tashkilot ushbu Nizomni qo'llash jarayonida qabul qilingan qarorlar, harakatlar yoki harakatsizlik ustidan qonunchilikda belgilangan tartibda yuqori turuvchi organga yoki sudga shikoyat qilish huquqiga ega.

53. Ushbu Nizom talablarini buzganlikda aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladi.

Nomli stipendiyalarni tanlov asosida tayinlash va to'lash

SXEMASI

Bosqichlar	Mas'ullar	Amalga oshiriladigan tadbirlar	Muddati
I-bosqich	Ilmiy kadrlar bo'limi, ishchi organ	Arizalarni qabul qilinishini e'lon qilish.	Har yili 1-sentabr sanasiga qadar
II-bosqich	Talabgor, tashkilot	Maxsus axborot tizimi orqali ariza berish. Arizani tashkilot ilmiy kengash kotibi va tashkilot rahbari bilan kelishish. Arizaga tegishli hujjatlarni ilova qilish.	Har yili 15-oktabr sanasiga qadar
III-bosqich	Ilmiy kadrlar bo'limi	1. Ariza va unga ilova qilingan hujjatlarni ko'rib chiqish. 2. Ko'rib chiqish natijalarini saralash komissiyasiga kiritish.	10 kun Har yili 25-oktabr sanasiga qadar
IV- bosqich	Saralash komissiyasi, Ilmiy kadrlar bo'limi	Hujjatlarni ko'rib chiqish va majlis bayonnomasi bilan g'oliblar ro'yxatini tasdiqlash hamda Ishchi organga yuborish.	Har yili 15-dekabr sanasiga qadar
V-bosqich	Ishchi organ	G'oliblarga nomli stipendiya tayinlash va moliyalashtirish to'g'risida buyruq loyihasini tayyorlash.	Har yili 20-dekabr sanasiga qadar
VI-bosqich	Ishchi organ, moliya va buxgalteriya, tashkilot	Mablag'larni belgilangan tartibda tegishli shaxsiy g'azna hisobvarag'iga o'tkazish va nomli stipendiyani har oy to'lash.	Belgilangan muddatlarda

Nomli stipendiya tanlovida talabgorlarni baholash MEZONLARI

T/r	Baholash mezonlari	Eng yuqori ball
1	Dissertatsiya tadqiqotining nomli stipendiya ta'sis etilgan fan yo'nalishiga muvofiqligi, dolzarbligi, ilmiy yangiligi va ilmiy ahamiyati	25
2	Yakka tartibdagi rejaning bajarilishi va dissertatsiya ishining bajarilish holati	20
3	Dissertatsiya mavzusi bo'yicha erishilgan ilmiy natijalarning sifati, ahamiyati va talabgorning shaxsiy hissasi	30
4	Nomli stipendiya ta'sis etilgan fan yo'nalishiga xos ilmiy, amaliy yoki boshqa natijalar	15
5	Ilmiy faollik, ilmiy loyiha va grantlarda ishtiroki, ilmiy e'tirof va boshqa yutuqlar	10
JAMI		100

Izoh:

1. Baholashda nomli stipendiya ta'sis etilgan fan yo'nalishining o'ziga xos xususiyatlari inobatga olinadi.
2. Muayyan fan yo'nalishiga xos bo'lmagan natija turining mavjud emasligi talabgorning boshqa mezonlar bo'yicha ballini kamaytirish uchun asos bo'lmaydi.
3. Maqola, monografiya, ilmiy manba va nashrlar, intellektual mulk obyektlari, dasturiy mahsulotlar, ma'lumotlar to'plami, prototip, texnologiya, joriy etish natijalari hamda fan yo'nalishiga xos boshqa hujjatlar bilan tasdiqlangan natijalar tegishli mezon doirasida hisobga olinadi.
4. Bir ilmiy natija ikki yoki undan ortiq mezon bo'yicha takroran hisobga olinmaydi.

*Tayanch doktorantura izlanuvchilariga
nomli stipendiyalarni tayinlash va to'lash
tartibi to'g'risidagi nizomga
3-ilova*

**Nomli stipendiya tanlovida talabgorni
BAHOLASH VARAG'I**

Nomli stipendiya: _____

Talabgorning F.I.O.: _____

T/r	Baholash mezon	Eng yuqori ball	Qo'yilgan ball	Qisqacha asoslantirish
1	Dissertatsiya tadqiqotining nomli stipendiya ta'sis etilgan fan yo'nalishiga muvofiqligi, dolzarbligi, ilmiy yangiligi va ilmiy ahamiyati	25		
2	Yakka tartibdagi rejaning bajarilishi va dissertatsiya ishining bajarilish holati	20		
3	Dissertatsiya mavzusi bo'yicha erishilgan ilmiy natijalarning sifati, ahamiyati va talabgorning shaxsiy hissasi	30		
4	Nomli stipendiya ta'sis etilgan fan yo'nalishiga xos ilmiy, amaliy yoki boshqa natijalar	15		
5	Ilmiy faollik, ilmiy loyiha va grantlarda ishtiroki, ilmiy e'tirof va boshqa yutuqlar	10		
JAMI		100		

Izoh:

- 1. Har bir mezon bo'yicha qo'yilgan ball "Qisqacha asoslantirish" ustunida qisqa bayon etiladi;*
- 2. Baholash varag'i har bir talabgor bo'yicha har bir baholovchi tomonidan alohida to'ldiriladi.*

Baholovchining F.I.O.: _____

Sana: "___" _____ **20__y**